

**BIOLOGIYA DARSALARIDA DIDAKTIK O`YINLARNI QO`LLASH
YUZASIDAN METODIK TAVSIYALAR**

*Atabayeva Gulbahor Saminjon qizi
O`zbekiston tumani 49-umumiy o`rta ta`lim maktabi
biologiya fani o`qituvchisi*

Bugungi davr talabi ta`lim sifatini ko`tarish, yangilash va yangiliklarni kiritishdan iboratdir. Bu borada davlatimiz tomonidan bir qancha loyiha va ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta`limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiysi va uni amalga oshirish uchun yo`l xaritasi tasdiqlandi. Mazkur konsepsiya ta`lim tizimini rivojlantirishning quyidagi yo`nalishlarini belgilab berdi: O`zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA Xalqaro miqyosda o`quvchilarni baholash dasturi reytingi bo`yicha jahonning bиринчи 30 ta ilg`or mamlakati qatoriga kirishiga erishish; uzluksiz ta`lim tizimi mazmunini sifat jihatidan yangilash, shuningdek professional kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish; o`qitish metodikasini takomillashtirish, ta`lim-tarbiya jarayoniga individuallashtirish tamoyillarini bosqichma-bosqich tatbiq etish va h.k ishlar belgilab olindi. Konsepsiya ta`lim tizimini rivojlantirishning asosiy yo`nalishlarini belgilaydi. Xususan, umumiy o`rta ta`lim tizimi takomillashtiriladi. Shuningdek, xorijiy tillar, kompyuter savodxonligi, matematika, fizika, kimyo va biologiya kabi fanlar bo`yicha yangi o`quv standartlari, dastur hamda darsliklar yaratiladi. O`quvchilarning qobiliyatini rivojlantirish, mustaqil ravishda kasb-hunar tanlash hamda zamonaviy kasblarni egallashi uchun sharoitlar yaratiladi. Shu bilan birga konsepsiya ko`ra o`sib kelayotgan yosh avlodni ma`naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirish yangi darajaga ko`tariladi. O`quv-tarbiya jarayoniga ta`limning innovatsion shakllari va usullari joriy etiladi. Uzluksiz ta`lim tizimi mazmuni sifat jihatdan yangilash yo`llari ko`zda tutiladi. Prezidentimiz bola tarbiyasi haqida shunday so`zlarni aytadi: "Mustaqil o`ylay oladigan, tafakkur yuritib to`g`ri maqul va maqbul ish tuta oladigan vatanparvar shaxslarni shakillantirish va tarbiyalash kerak". Shunga, binoan Davlatimiz rahbari ijtimoiy, ma`naviy-ma`rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim assosida yo`lga qo`yish, bunda, yoshlarga bo`lgan e`tiborni yanada kuchaytirish, ularni madaniyat, san`at, jismoniy tarbiya va sportga keng jalb etish, axborot texnologiyalaridan foydalanish ko`nikmalarini shakllantirish, yurtimiz yoshlari o`rtasida kitobxonlikni targ`ib qilish, xotin-qizlar bandligini oshirish masalalariga alohida urg`u berish maqsadida "Beshta muhim tashabbus" ni ilgari surgan edi. Ushbu "Beshta muhim tashabbus" ta`limning barcha sohalariga qartilgandir. Yoshlar ma`naviyatini yuksaltirish, ular o`rtasida kitobxonlikni keng targ`ib qilish chora-tadbirlari haqida fiklar yuritilgan. Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo`lishi farzandlarining

bugungi qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq. Respublikamiz ta'lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o'sib kelayotgan yosh avlod, o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini, mantiqiy fikrlay olish qobiliyatini, aqliy rivojlanishini, o'zini-o'zi anglash salohiyatini shakllantirish va o'stirish, ularda milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarkib toptirish, ma'naviy barkamol inson bo'lib yetishishlari, jamiyatda o'z munosib o'mmini egallashga qodir bo'lgan, komillikka intiladigan barkamol avlodni voyaga yetkazishda boshlang'ich fanlarning (o'qish, matematika, ona tili, tabiatshunoslik, tasviriy san'at, musiqa, tarbiya) o'rni beqiyosdir. Hozirgi kunda ilm-fan, texnika va ishlab chiqarish sohalarining, axborot kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya sifatini mazmun jihatidan yuqori bosqichga ko'tarishni talab etadi.

Biologiyaga oid qiziqarli mavzularga klaster ,krossvord, rebus va ijodiy izlanishga undaydigan mashqlarni kiritish mumkin. Bunday qiziqarli masalalar quyidagi didaktik talablarga javob berish kerak.

1.Qiziqarli masalalar tezkor va obrazli fikrlashni rivojlantirib, ularni yechish jarayonida ijodiy motivatsiya hosil qilishi.

2.Taqdim etilayotgan materialning o'quvchilar uchun yangi va qiziqarli bo`lishi.

3. O`quvchilarning o`quv-biluv faoliyati darajasini oshirish maqsadida topshiriqlarning mazmunida uni turli usullar bilan yechilishining ko`zda tutilishi.

4.Qiziqarli masalalarning yechish jarayonida bosqichma-bosqich o'quvchilarning ijodkorligini yuzaga chiqarishga yo`naltirilishi.

5.O`quvchilarning mustaqil ishlashini taminlash uchun topshiriqlarning variativ bo`lishi.

6.Topshiriqlarni o`quvchilarning fazoviy tasavvur va tafakkurini rivojlantirishga qaratilishi.

Biologiya o`qitishda krossvord va rebuslardan foydalanish o`quvchilarni zeriktirmaslikka, kimyo atamalaridan so`z boyligini oshirish va tez fikrlashga o`rgatadi. Biologiyaga oid rebursni tuzishda turmushda uchraydigan va o`quvchilarga ma'lum bo'lgan obyektlar, shakllar yoki tajribalarni tanlash maqsadga muvofiq. Rebusda berilgan turli hil obyektlar, shakllar va tasvirlar o`quvchilarga ma'lum bo`lgani uni o`qitishning hamma bosqichida qo'llash mumkin. O`quvchilarni fanga qiziqtirish, darsda qiziqarli masalalar va didaktik o`yinlardan unumli foydalanib faol o`quv – biluv jarayonini vujudga keltirish orqali o`quvchilarning grafik tayyorgarligi darajasini oshirish va kasbiy shakllantirish mumkin

Mavzu: Nerv sistema kasalliklari

Dars o`tishning texnologik xaritasi

Maqsad va vazifalar	Markaziy nerv sistemasining kasalliklari va Periferik nerv sistemasi kasalliklarini o'rganish va ularning o'ziga xos xususiyatlari.
O`quv – tarbiya jarayonining mazmun mohiyati	Markaziy nerv sistemasining kasalliklari va Periferik nerv sistemasi kasalliklarini o'rganish orqali o`quvchilarga biologik va ekologik tarbiya hosil qilishdan iborat
Dars jarayonini amalga oshirish usullari, texnologiyasi	<p>Metod: "Sinf bilan ishlash", "Og`zaki bayon qilish", suhbat</p> <p>Usul: savol – javoblar</p> <p>Shakl: ma'ruza, jamoada ishlash</p> <p>Vosita: 8-sinf "Odam va uning salomatligi" darsligi, savollar, rasmlar, elektron darslik, komp'yuter</p> <p>Nazorat: og`zaki, o`z-o`zini nazorat qilish.</p> <p>Baholash: rag`batlantirish, balli sistema asosida</p>
Kutilayotgan natijalar	<p>O`qituvchi: "Nerv sistema kasalliklari" mavzusini yoritishda qisqa vaqt ichida o`zlashtirishga erishadi. O`quvchilar faolligini oshiradi. O`quvchilarning darsga, fanga qiziqishi ortadi. Bir qancha o`quvchilarni baholaydi. Maqsadga erishadi.</p> <p>O`quvchi: yangi bilimlarni egallaydi. Yakka tartibda ishlash ko`nikmasi ortadi, nutqi rivojlanadi – ravonlashadi, o`z-o`zini nazorat qilishni o`rganadi.</p>
Kelgusi rejalar	<p>O`qituvchi: o`quvchilarni biologiya faniga qiziqtirish yo`llarini, mavzuning hayotga fan, tibbiyot bilan bog`lanishini boyitish.</p> <p>O`quvchi: Markaziy nerv sistemasining kasalliklari va Periferik nerv sistemasi kasalliklarini farqlay oladi hamda, qo`shimcha adabiyotlar bilan ishlaydi, o`z fikrini ravon bayon qila oladi, mustaqil fikrlaydi.</p>

Maqsad: a) ta'limiy maqsad – Markaziy nerv sistemasining kasalliklari va Periferik nerv sistemasi kasalliklarini o'rganish va ularning o'ziga xos xususiyatlari haqida tushuntirish;

b) tarbiyaviy maqsad – mavzu asosida sog'lom tumush tarziga o'rgatish;

s) rivojlantiruvchi maqsad – markaziy va Periferik nerv sistemasi kasalliklariga oid tarqatmalardan foydalanish.

Dars turi: yangi tushuncha bilimlarini shakllantiruvchi, BKMni rivojlantirish.

Dars usuli: an'anaviy, zamonaviy.

Jihozlar: Ko`rgazmali plakatlar, tarqatma materiallar, elektron darslik, darslik.

Bosqichlar	Mazmuni	Metodlar	Vaqti
Tashkiliy qism 1-bosqich	Salomlashuv. Darsda qatnashuvchi o`quvchilar davomati, o`quv qurollari shayligini ko`rish, darsga muhit tayyorlash	Og`zaki muloqot	4 daqiqa
Otilganlarni takrorlash 2-bosqich	O`qituvchi ishtirokida o`tilgan mavzuni takrorlash, sinf jamoasi bilan ishlash	Jamoa bilan ishlash, og`zaki topshiriq va taqdirlash.	8 daqiqa
Yangi mavzuni bayoni 3-bosqich	Mavzu bo`yicha o`quvchilarni savol-javob orqali bilimlarini so`rash hamda mavzu mazmunini ko`rgazmali ma`ruzasi – jamoaviy. Elektron darslikni namoyish etish.	Og`zaki bayon, tushuntirish, savol-javob, darslik bilan ishlash, rasmlar bilan tanishish	20 daqiqa
Mustahkamlash 4-bosqich	Mavzu bo`yicha o`quvchilarning bilimlarini savol-javob orqali aniqlash, past o`zlashtiruvchi o`quvchilarga e`tibor berish.	Savol-javob, o`z-o`zini baholash	9 daqiqa
Darsni yakuni, baholash, uyga vazifa berish 5-bosqich	Darsda faol ishtirok etgan va savollarga javob bergan o`quvchilarni rag`batlantirish (baholash va siylov), darsni yakunlash, uy vazifasini berish (uyga vazifa qanday bajarilishi va nima qilinishi tushuntiriladi).	O`quvchilarni rag`batlantirish	4 daqiqa

I.Taskiliy qism: a) Salomlashish

b) Yo`qlama

s) o`quv – qurollar shayligini ko`rish

d) muhit tayyorlash.

II. O`tilgan mavzuni takrorlash: savol – javob, o`quvchilar tomonidan so`zlash.

- Savollar: 1. Vegetativ nerv sistemasi qaysi organlarning ishini boshqaradi?
2. Simpatik nerv sistemasining tuzilishi va funksiyalarini aytинг.
3. Parasimpatik nerv sistemasining tuzilishi va funksiyalarini tushuntiring.

III. Yangi mavzuning bayoni:

Reja:

1. Markaziy nerv sistemasining kasalliklari.
2. Periferik nerv sistemasi kasalliklari.

Nerv sistemasi ikki qismdan, ya'ni markaziy va periferik qismdan iborat. Ularning kasalliklari ham o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Markaziy nerv sistemasining kasalliklari. Bosh va orqa miyani ustidan o'rabi turgan pardalarning yallig'lanishi meningit deb ataladi. Bunda bemorning boshi og'riydi, tana harorati ko'tariladi, ko'ngli aynib, qayt qiladi. Xastalik og'ir kechganda bemor hushini yo'qotishi va unda tirishish belgilari yuzaga kelishi mumkin.

Bosh miya to'qimasining yallig'lanishi ensefalit, deb ataladi. Bu yuqorida aytilgan meningit kasalligini o'z vaqtida davolamaslik tufayli yoki griðp, qizamiq, suvchechak, qulinqing yiringli yallig'lanishi va boshqa xastaliklar oqibatida yuzaga kelishi mumkin. Bu xastalikda bemorning tana harorati ko'tariladi, umumiy ahvoli og'irlashadi.

Orqa miya to'qimasining yallig'lanishi miyelit deb ataladi. Bu kasallik ko'pincha bolalarda uchraydi, uni maxsus viruslar qo'zg'atadi va poliomiyelit kasalligi deyiladi--- orqa miya nerv hujayralarining yallig'lanishi, poli --- ko'p degan ma'noni bildiradi, ya'ni poliomiyelit orqa miya bir nechta segmentlari nerv to'qimasining yallig'lanishidir.

Kasallikning belgilari orqa miyaning zararlangan segmentlari tomonidan boshqariladigan ishchi a'zolarning sezuvchanligi va harakatlanishi susayishi yoki butunlay yo'qolishidan iborat. Masalan, qo'l-oyoq muskullari ishini boshqaradigan nerv hujayralari zararlansa, mazkur qo'l va oyoqda oldin og'riq sezilib, so'ngra ular falajlanib qoladi. Muskullarning tarangligi yo'qolib, qo'l-oyoq lattadek osilib qoladi. Yuqoridagi xastalik belgilari sezilishi bilanoq, asab kasalliklari shifokoriga murojaat qilish kerak.

Periferik nerv sistemasi kasalliklari. Ma'lumki, periferik nerv sistemasiga nerv tugunlari va nerv tolalari kiradi. Nerv tugunining kasalligi ganglionit, nerv tolasining kasalligi nevrit yoki nevralgiya deb ataladi.

Nerv tugunining kasalligi, ya'ni ganglionit shamollahsh, o'pkaning zotiljam kasalligi, turli xil yuqumli kasalliklar, ya'ni gripp, ichburug', ich terlama kabilarning asorati tufayli yuzaga keladi. Kasallangan nerv tugunining joylashuviga ko'ra, o'sha sohada va undan chiqadigan nerv tolasini ta'minlaydigan to'qima va organlar sohasida og'riq seziladi, mazkur organlarning ishi buziladi.

Sezuvchi nerv tolalarining yallig'lanishi nevralgiya deb ataladi. Bu shamollahsh, griðp hamda boshqa yuqumli kasalliklarning asorati tufayli sodir bo'ladi. Kasallangan

nerv tolasi sohasida og'riq yuzaga keladi. Masalan, uchlik nervi yallig'langanda yuz, ko'z sohasida, tishlarda kuchli og'riq seziladi.

Harakatlantiruvchi nerv tolasining yallig'lanishi nevrit deb ataladi. Uning sababi ham yuqoridagidek. Belgisi shundan iboratki, kasallangan nerv bilan ta'minlanuvchi tana muskullari falajlanib qoladi. Masalan, yuz nervi kasallanganda yuz muskuli falajlanishi tufayli yuzning bir tomoni pastga osilib, og'izning chekkasi tortilib qoladi.

Tarqatma materiallar orqali “Kim chaqqon” o'yini olib boriladi:

Savol: Markaziy nerv sistemasining kasalliklariga nimalar kiradi?

Javob: Bosh va orqa miyani ustidan o'rab turgan pardalarning yallig'lanishi meningit, bosh miya to'qimasining yallig'lanishi ensefalit va orqa miya to'qimasining yallig'lanishi miyelit kabilar kiradi.

Savol: Bosh miya katta yarim sharlari nechta zonaga bo'linadi?

Javob: Bosh miya katta yarimsharlari po'stlog'inining turli qismlarida joylashgan nerv hujayralarining po'stloq sathi funksiyasiga ko'ra, uchta zonaga bo'linadi: sezish, harakat va assotsiativ zonalar. (rasmgan qarang)

Savol: Periferik nerv sistemasi kasalliklariga nimalar kiradi?

Javob: Ma'lumki, periferik nerv sistemasiga nerv tugunlari va nerv tolalari kiradi. Nerv tugunining kasalligi ganglionit, nerv tolasining kasalligi nevrit yoki nevralgiya kabilar kiradi.

Nerv tugunining kasalligi, ya'ni ganglionit shamollash, o'pkaning zotiljam kasalligi, turli xil yuqumli kasalliklar, ya'ni gripp, ichburug', ich terlama kabilarning asorati tufayli yuzaga keladi.

Sezuvchi nerv tolalarining yallig'lanishi nevralgiya gripp hamda boshqa yuqumli kasalliklarning asorati tufayli sodir bo'ladi. Kasallangan nerv tolasi sohasida og'riq yuzaga keladi.

IV. Mustahkamlash. Yuqorida mavzuni bayon etish bilan birga har bir rejadan so`ng tushunchani mustahkamlash uchun savol-javobdan foydalaniladi va o`quvchilar baholanadi. Bunda o`quvchilarning BKMLarni o`zlashtirishda natijaga erishish mumkin.

Darsga yakun yasash va baholash. O'tgan mavzuni so'rashdan so`ng va savol-javob natijasidan keyin o`quvchilar baholanadi. Yangi mavzuni bayon etishdagi savol-javob mavzuni mustahkamlash ham hisoblanadi.

V. Uyga vazifa: Darslikdagi mavzuni o'qib o'rganish, “Nerv sistemasi kasalliklari” haqida qo'shimcha ma'lumotlar to'plab kelish (bu navbatdagi mavzuni o'rganishda asos bo'ladi, bog`lanish yuzaga keladi), daftarga mavzudagi uchragan termin va BKM elementlarini lug`aviy ma'nosi bilan yozib kelish.

Foydalanilagn adabiyotlar :

- 1.Tolipov O'.,No'monova N.O'quv jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish.G'Y Xalq ta'limi. 2002/ 4.25 b.
- 2.Begmatov U.E.Umumiy o'rta maktablarda tashqari ishlarni dars bilan boqlashning nazariy-metodologik asoslari.Diss...kand.ped.nauk.T.2004.-
- 3.Asqarov I.R.,To'xtaboyev N.X.,G'opirov K.G'.Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun darslik.-Toshkent